



TOP... TOP...
TOPISHMO?

TOP... TOP... TOPISHMOQ



QAYTA NASHR

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

Toshkent
"Yangi asr avlodi"
2021

UO'K: 821.512.133-193.

398.61

KBK: 84(50'zb)7

T-67

Top... top... topishmoq/topishmoqlar – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2021. –120 b.

ISBN 978-9943-08-979-2

Bolalar adabiyoti nafaqat nazm va nasr bilan, balki tez aytish, topishmoqlar bilan o'zini namoyon etadi.

Bolalarni fikrlashga, topqirlikka o'rgatadigan topishmoqlar ularni kelajakda jumboqli vaziyatlardan, muammoli holatlardan qiyinchiliksiz chiqishga tayyorlashi shubhasiz.

O'n bir mavzuni o'zida mujassamlashtirgan mazkur to'plam bolalar uchun ajoyib topqirlik mashqi bo'lishiga ishonamiz.

UO'K: 821.512.133-193.

398.61

KBK: 84(50'zb)7

Musanniflar:

Zokir ZAMONOV, Dildora ZUBAYTOVA

Taqrizchilar:

Qozoqboy YO'LDOSHEV,
filologiya fanlari doktori, professor

Latofat TOSHMUHAMEDOVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farida EGAMBERDIYEVA,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-08-979-2

© «Top... top... topishmoq».
«Yangi asr avlodi», 2021-yil.

Osmon jismlari



Ko'k ko'ylakka qo'l yetmas.

(Osmon)

Ko'k kosani to'ntardim.

(Osmon)

Ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim.

(Osmon, yulduzlar)

Oppoq sandiq ochildi,
Olamga nur sochildi.

(Osmon, quyosh)

Uzoq tog'da o't yonar.

(Quyosh)

Suvda yotar — suv ichmas,
Yurganini odam bilmas.

(Oy, quyosh)

Oltin kelganda, kumush ketar,
Kumush kelganda, oltin ketar.

(Quyosh, Oy)

Bir parcha patir,
Olamga tatir.

(Oy)

Kecha tomda bir patir ko'rdim,
Erta qarasam — yo'q.

(Oy)

Tom ustida bir anor,
Hadding bo'lsa, ushlab ol.

(Oy)

Onasi bitta.
Bolasi mingta.

(Oy va yulduzlar)

Kechasi hovuzga jo'xori sepdim,
Kunduzi qarasam yo'q bo'lib ketibdi.

(Yulduzlar)

Mildir-mildir oq munchoq,
Erta tursam aslo yo'q.

(Yulduzlar)

Og'a-ini ming pahlavon,
Ko'k gilamda yotar hamon.

(Osmon, yulduzlar)

Qora uyda ming chiroq,
Uyni yoritmas biroq.

(Yulduzlar)

Mittigina bir o'zi,
Yalt-yalt etadi ko'zi.

(Yulduz)

Bir otasi, bir onasi,
Necha yuz ming bolasi.

(Quyosh, oy, yulduzlar)

Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko'taray desam, og'ir gilam.

(Yer)

Bir gilamim bor –
Hech yig'olmayman.

(Yer)

Yedirib, yedirib, o'zi yer.

(Yer)

Og'ir ko'rpa – ko'tarib bo'lmas.

(Yer)

Og'ir gilam – qoqib bo'lmas.

(Yer)

Ikki chiroq tinmaydi,
Kecha-kunduz so'nmaydi.

(Quyosh, oy)

Ikki yo'rg'a ikki yon,
Biri tunda, biri tong.

(Quyosh, oy)

Yarimta doiram bor,
Olam har kun unga zor.

(Oy)

Kechasi yurar,
Kunduzi tinar.

(Oy)

Yaltur-yultur doiram,
Olam uzra kezadi.
Qizlarini yetaklab,
Har tun dengiz suzadi.

(Oy va yulduzlar)

Tagi tog'ora,
Usti nog'ora.
Yuz ming chechak,
Bir gul-u lola.

(Yer, osmon, yulduzlar, oy)

Tunda yozar dasturxon,
Dasturxonda shirmoy non.
Shirmoy non bir donadir,
Ushlab bo'lmas hech qachon.

(Osmon, oy)

Tunda yoqa olmaysan,
Kunduz o'chirolmaysan.

(Quyosh)

Olam kezib quvlashar,
Yulduzlar ham o'ynashar.

(Quyosh, oy)

Ko'kda qilich yarqiraydi,
Suvda aksi yaltiraydi.

(Oy)

To'ntarilgan ko'k qozonda
Oltin tanga qaynaydi.

(Osmon, yulduz)

Tunda kiydim zar ko'ylak,
Kunduz zari ko'rinmas,
Sanaganing befoyda,
Soniga yetib bo'lmas.

(Yulduz)

Tunda chiqar onasi,
Necha minglab bolasi.
Bekinishar har yoqqa,
Kelib qolsa otasi.

(Oy, yulduz, quyosh)

Yorug'i bor, dovrug'i bor,
O'zi yo'q, ovozi bor.

(Momaqalldiroq)

Tunda yonar sonsiz cho'g',
Kunduzi izlasang ham yo'q.

(Yulduz)

Uxlab yotar kunduzi,
Shomda ochilar ko'zi.

(Oy)

Ko'k sandig'im ochildi,
Ichidan zar sochildi.

(Osmon, yulduzlar)

Osmondan par tushadi,
Muzdek – zarga o'xshaydi.

(Qor)

Ko'm-ko'k ko'ylak –
Cheksiz etak.

(Osmon)

Kumush baldoq –
Osmonda chiroq.

(Oy)

Tabiat hodisalari



Qishda yaxlamaydi,
Yozda yaltiraydi.

(Sho'r yer)

Ketaveradi, ketaveradi,
Orqasiga qaytmaydi.

(Ariq)

O'yib oldim –
Izi yo'q.

(Suv)

Oyna ko'rdim –
Qo'l botar.

(Suv)

Uzun-uzun iz kelar,
Uzun bo'yli qiz kelar,
Qoshginasi qaltirab,
Ko'zginasi yaltirab.

(Suv, ariq)

Otasi egri-bugri,
Onasi silliq, to'g'ri.
O'g'li qo'shiqchi,
Qizi o'yinchi.

(Ariq, suv, baqa, baliq)

Qozonda emas, qaynaydi,
Qishin-yozin tinmaydi.

(Buloq)

Ko'zga ko'rinmas,
Qo'lga sezilmas.

(Havo)

Oyog'i yo'q – qochadi,
Qanoti yo'q – uchadi.

(Bulut)

Qora biyam qalt etdi,
Qovurg'asi yalt etdi.

(Bulut, chaqmoq)

Ship etdi,
Charaqlab ketdi.

(Chaqmoq)

Uzun-uzun iz ketdi,
Uzun bo'lyi qiz ketdi.
Toqqa borib, taq etdi,
Sirg'alari yalt etdi.

(Chaqmoq)

Yorug'i bor,
O'zi yo'q,
Ovozi bor,
So'zi yo'q.

(Chaqmoq, momaqaldiraq)

Novcha yigit – tom teshar.

(Yomg'ir)

Saman otim soy yoqalab keladi,
Gupur-gupur suv ustidan yeladi.

(Sel)

Qora molim yugurdi,
Ortidan sut sochildi.

(Bulut, do'l)

Mayda-mayda – ko'kdan tushar,
Qasir-qusur, tomni teshar.

(Do'l)

Osmondan oq bodroq to'kilar.

(Do'l)

Oppoqqina dasturxon,
Yer yuzini qoplagan.

(Qor)

Oqqushim yerga qo'ndi,
Qanoti nurga to'ldi.

(Qor)

Oppoq tovuq xirmon sochar.

(Qor)

Qo'li yo'q, oyog'i yo'q,
Gul solar – ta'rifi yo'q.
(Izg'irin, deraza qirovi)

Ariqdan oyna oldim.

(Muz)

Oqsoq xo'ja yer qazir.
(Tomchi)

Tumshuqsiz chumchuq muz teshar.

(Tomchi)

Chak-chak etdi,
Uyga sizib ketdi.
(Chakka o'tishi)

Harir parda,
Yo'lni to'sar.

(Tuman)

Havodan keldi,
Havoda ketdi,
Bargga qo'nib o'tdi.
(Shudring)

Qo'li yo'q, oyog'i yo'q,
Ovozi bor – og'zi yo'q.

(Shamol)

Qo'li yo'q,
Oyog'i yo'q,
Eshik ochar.
(Shamol)

Katta cho'lda jinlar o'ynar.

(Quyun)

Tebratadi – joni yo'q.
Nomi bor-u – o'zi yo'q.
(Zilzila)

Chopsa, chopilmas,
Kessa, kesilmas.

(Soya)

Ko'msa, ko'milmaydi.
Suvda cho'milmaydi.
Qancha quvlasang ham,
Qo'lga tutilmaydi.

(Soya)

Tog'dan kelar toshday,
Chopib tushar otday.

(Suv)

O'tib ketar izi yo'q,
Adog'i yoq, boshi yo'q.

(Suv)

Ko'kda qilich jangi,
Bog'dan chiqar changi.

(Yashin)

Ekinga so'raydilar,
Ko'rinsa qochadilar.

(Yomg'ir)

Oq do'lana sochildi,
Qo'lda erib ochildi.

(Do'l)

Ajab bir gumbazlik -
Suv yuzida o'ynar ul.

(Yomg'ir pufagi)

Uchib kelar g'oz kabi,
Oppoq bo'lar tuz kabi.
G'ijir-g'ijir etadi,
Suyak qaqshab ketadi.

(Qor, ayoz)

Qalin oyna sinib ketdi,
Uch deguncha erib ketdi.

(Muz)

Chik-chik etgan tovushi,
Yerni teshar tomishi.

(Tomchi)

Hakkam cho'loq yer teshar.

(Tomchi)

Bir parcha shisha,
Yer uchun tesha.

(Tomchi)

Go'yoki sut,
Olamga dud.

(Tuman)

Yuguradi kuchi yo'q,
Ushlolmaysan – tuki yo'q.

(Shamol)

Oyog'i yo'q, qo'li yo'q,
Dunyo kezar uyi yo'q.

(Shamol)

U yoqqa o'tdim, bildingmi?
Bu yoqqa o'tdim, bildingmi?
Daraxtlarning boshini
Egib ketdim bildingmi?

(Shamol)

Qamish boshi qaltiratar,
Jilg'a yuzi yaltiratar.

(Shamol)

U yog'i dasht, bu yog'i dasht,
O'rtada o'ynar kurash.

(Quyun)

Borar-kelar, izi yo'q,
Ovozi bor, o'zi yo'q.

(Shamol)

Bir savat anor,
Hadding bo'lsa ol.

(Cho'g')

Bir tovoq qizil olma,
Olmoqqa hadding bormi?

(Cho'g')

Yalt-yalt etadi,
Yamlab ketadi.

(O't-olov)

Ko'k ho'kiz oldin chiqar,
Qizil ho'kiz quvib chiqar.

(Tutun, olov)

Ko'k otimni qo'yvordim,
Qizil otimni olib qoldim.

(Tutun, olov)

Ko'k otim – ko'kka qarab yo'rg'alar.

(Tutun)

Qo'l-oyoqsiz, tomga chiqar.

(Tutun)

Oyog'i yo'q qochadi,
Qanoti yo'q uchadi.

(Tutun)

Uzundan uzoq,
Havoga tuzoq.

(Tutun)

Tovushi olamga yetadi,
Rangi osmonga ketadi.

(Momaqalldiroq)

Qidirib topolmaysan,
Yugurib yetolmaysan.

(Hid, is)

Ko'zga ko'rinmas,
Qo'lga tutilmas,
Burunga kirmay qolmas.

(Is, hid)

Ortimdan borar cho'ponim,
Qora rangli choponim.

(Soya)

Hamrohim bor – befoyda,
Qo'ymas yolg'iz hech joyda.
Quvalasam, ketmaydi,
Savalasam, o'tmaydi.

(Soya)

Oyog'i yo'q, qo'li yo'q,
Shoshib chopib chiqar u.
Ulkan zamin bag'ridan,
Manzil topib chiqar u.

(Buloq)

Oppoq sochli boshlari,
Daryo bo'lar yoshlari.

(Qorli tog')

Beg'ubor bolalar kelar,
Mehrini ola kelar.
Maysay-u daraxtlarga
Gul rangin sola kelar.

(Bahor)

Qishda oq gul misol,
Bahorda suv sochadi.
Kelganda tong shamoli,
Tumtaraqay qochadi.

(Bulut)

Yondi-yu o'chdi,
Ovozi ko'chdi.

(Chaqmoq)

Chirmandasi osmonda,
Raqsı yerda, har yonda.
(Momaqalldiroq, yomg'ir)

Sharroslatib suv separ,
Tut qoqqanday tosh separ.

(Do'li yomg'ir)

Yerga tushsa loy qilar,
Dehqonlarni boy qilar.

(Yomg'ir)

Katta chelak teshildi,
Har yonga suv sepildi.

(Yomg'ir)

Chiqib kelar yoy misol,
Yetti rangli tuni bor.

(Kamalak)

Dunyoni unga belar,
Sovuqda shakar yelar.

(Qor)

Qish bobo novvot sotdi,
Olgandim – qo'lim qotdi.

(Muz)

Mehmon bo'lib bog'imga,
Hid purkar dimog'imga.

(Shamol)

Ushlolmaysan, yetolmaysam,
Yetasan-u tutolmaysan.

(Soya)

Quvladim yetolmadim,
Qo'l bilan tutolmadim.

(Soya)

O'zi yerda, boshi ko'kda.

(Tutun)

Oppoq sandiq ochildi,
Olamga dur sochildi.

(Qor)

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

Tomchi-tomchi
Tomga qo'nar.

(Yomg'ir)

Oppoq par, yumshoq par,
Yer yuzini to'ldirar.

(Qor)

Suv yuzida sovuq oyna.

(Muz)

O't bo'lmasa, buralib chiqar.

(Tutun)

Yorug'i bor, dovrug'i bor,
O'zi yo'q, ovozi bor.

(Momaqalldiroq)

Vaqt nisbatlari



Bir olmada o'n ikki danak.

(Yil, o'n ikki oy)

Bir tovug'im bor –
O'n ikki tuxum ochar.

(Yil, o'n ikki oy)

Bir supada o'ttiz kelin soch tarar.

(Oy, o'ttiz kun)

Zarga sotilmas,
Zo'rga topilmas.

(Vaqt)

Bir tup katta terak:
Ildizi bir, shoxi o'n ikki.
Yaprog'i uch yuz oltmish,
Yaprog'ining bir tomoni oq,
Ikkinchi tomoni qora.

*(Yil, o'n ikki oy, kunlar,
kecha-kunduz)*

Yetti og'a-ini ko'rdim,
Nomlari har xil,
Yoshi bir xil.

(Hafta kunlari)

Zargarga sotilmaydi,
Yopilsa, ochilmaydi.
Orqaga qaytmas sira
Tillaga topilmaydi.

(Tun, kun)

Bir tol – ko'kka yetadi,
O'n ikkita shoxi bor.
Har shoxida 4 novda,
Har novdada 7 barg.
Har bargining yarmi oq,
Yarmi qop-qora biroq.

*(Yil, o'n ikki oy, hafta,
kecha-kunduz)*

Bir palak –
Bir palakda
O'n ikki handalak.
O'n birin yeb,
Birin qoldirdik atay.

(Yil, o'n ikki oy, bir oy ro'za)

Tongda to'rt oyoq,
Tushda ikki oyoq,
Shomda uch oyoq.

*(Inson – bolaligida,
yigitligida, keksayganda)*

O'zi bitta,
Boshi ikkita.
Ortida dum,
Oyog'i oltita.

(Chavandoz)

Kun-u tun yuradi,
Bitta joyda turadi.

(Soat)

Oyog'i yo'q – yuradi,
Og'zi yo'q – gapiradi.

(Soat)

O'zi ming xil,
Gapi bir xil.
O'zi dirillar,
Qorni g'irillar.

(Soat)

Oq tovoqda sariq qaychi.
Chiq-chiq etar har vaqt qaychi.

(Soat)

Mening bitta do'stim bor,
To'rtta o'g'li betakror.
O'n ikki nevarasin
Har birining nomi bor.

(Bir yil, to'rt fasl, o'n ikki oy)

Bir gulim bor, o'n ikki g'unchasi bor,
Har bir g'unchaning yigirma to'rt bargchasi bor.

(Bir yil, 12 oy, 30 kun, 24 soat)

Kelib-ketar bir yilda,
To'rt og'ayni har xilda.

(To'rt fasl)



Inson a'zolari



Bog'ladim, bog'ladim,
Oxiri orqamga tashladim.

(Soch o'rimi)

Ikki joyda oyna ko'rdim,
Atrofi qamishga o'ralgan.

(Ko'z, kipriklar)

Tom ustida qo'sh chiroq.

(Ko'z)

Qo'sh kosada qo'sh munchoq.

(Ko'z)

Ola kabutar –
Topilmas gavhar.

(Ko'z)

Ikki askar safda tutar,
Bir-biriga qaramas,
Kunduz kuni tinmay qarar,
Kechalari ko'rinmas.

(Ko'z)

Qarichdan yaqin,
Ko'rmaysiz lekin.

(Ko'z)

Ikki hovuz yonma-yon,
Gir aylana qamishzor.

(Ko'z bilan kiprik)

Bir oynam bor qopqoqli,
Atroflari popukli.

(Ko'z bilan kiprik)

Kunduz kuni safda turar,
Kechalari birga uxlar.

(Kipriklar)

Ustida ikki darcha,
O'rtasida bir kunda.

(Burun)

Tog'da ikki g'or ko'rdim.

(Burun)

Ikki teshikda butun olam g'avg'osi.

(Quloq)

Eshitadi, ko'rmaydi,

Ko'radi, eshitmaydi.

(Quloq, ko'z)

U yoqqa boqdim ko'rmadim,

Bu yoqqa boqdim ko'rmadim.

Oynaga qarasam o'zi ko'rindi,

Soyaga qarasam izi ko'rindi.

(Quloq)

G'aznadir – to'lmas,

Bir kun bo'sh bo'lmas.

Bo'sh qolsa, turmas,

Usiz jon bo'lmas.

(Og'iz)

Bir o'ra bor –

O'ra boshida sho'ra bor.

(Og'iz, mo'ylov)

Hovuzcha –

Hovuzcha ichida baliqcha.

(Og'iz, til)

Qizil g'orning ichida,

Qizil ilon yotibdi.

(Til)

Hamma vaqt og'zimda,

Hech yutib bo'lmaydi.

(Til)

Qizil buzoq – og'ildan chiqmas.

(Til)

Teg desam, tegmaydi,

Tegma desam, tegadi.

(Lab)

Qutichamni ochdim,
Ichidan oq tosh topdim.

(Og'iz va tish)

Sandiq to'la oq sadaf.

(Og'iz, tish)

Uyim bor eshigi yo'q,
Ichida beshigi yo'q.
O'ttiz ikki bola bor,
Hammasi oq, betakror.

(Og'iz, tish)

Oq tegirmonning toshi,
O'ttiz egarning boshi.
Shuni topgan yigitning
Yigirma beshda yoshi.

(Tish)

U yog'i arra, bu yog'i arra,
O'rtada go'sht bor barra.

(Tish, til)

O'ra,
O'raning yuqorirog'i sho'ra,
Sho'raning yuqorirog'i buloq,
Buloqning yuqorirog'i chiroq,
Chiroqning yuqorirog'i qalam,
Qalam usti taram-taram,

(Og'iz, mo'ylov, burun, ko'z, qosh, soch)

Hovuzcha,
Hovuzcha ustida buloqcha,
Buloqcha ustida chiroqcha,
Chiroqcha ustida qalamcha,
Qalamcha ustida ayvoncha,
Ayvoncha ustida chakalak.

(Og'iz, burun, ko'z, qosh, peshona, soch)

Chang'aroqda qo'sh chiroq.

(Ko'z)

Uy ustida egik yoy.

(Qosh)

Hovuzi bor, suvi yo'q.

(Og'iz)

Taram-taram qora yo'l.

(Soch)

Besh askar bor, bo'yi har xil,
Qashqasi bir, nomi har xil.

(Barmoqlar)

Besh og'ayni yosh edi,
Ichida biri bosh edi.

(Barmoqlar)

Aka-uka besh yigit,
Birlashsa tosh ham chigit.

(Barmoqlar)

Bir otadan besh o'g'il.

(Qo'l, barmoqlar)

Ikki ona besh o'g'il,
Har birining nomi bor.

(Qo'l, barmoqlar)

Bir daraxtda besh novda.

(Qo'l, barmoqlar)

Kosov,
Kosov boshida beshov,
Beshov boshida besh oyna.

(Qo'l, barmoqlar, tirnoq)

Bir o'choqqa besh kosov.

(Og'iz, besh barmoq)

Quv yog'och-a, quv yog'och.
Quv yog'ochda besh yog'och,
Besh yog'ochga qor yoqqan,
Qor ustida qizil rang.

(Qo'l, barmoqlar, tirnoq, bo'yoq-lak)

O'nta og'a-ini boshidan
O'nta oyna sinib tushdi.

(Barmoqlar, tirnoq olish)

Beshta botir – usti yaltir.

(Tirnoq)

Ikki otim bor chunon
Bir-biridan chopog'on.

(Oyoq)

Tursang turar,
Yotsang yotar.

(Oyoq)

Dumaloq yerga mayda tol ekdim.

(Soch)

Oq-qora qush,
Uchmay yetar.

(Ko'z)

Daryo tomon bir to'p yilqi,
Buyog'ida bir to'p yildi.
Tepishsa ham, qopishsa ham
Suv sizadi, chang chiqmas.

(Ko'z bilan kiprik)

Jar yoqasi yorti kapa.

(Quloq)

Yona yerda yapaloq archa.

(Quloq)

Qiya yerda yapaloq
Ikki bargi ikki yoq!

(Quloq)

G'or ichida qizil go'sht.

(Til)

Besh kampir orqasida besh oyna.

(Barmoqlar, tirnoq)

Qorong'i uyda o'ttiz ikki sadaf.

(Og'iz, tish)

Oq tovug'im bir qancha,
Uyasi bir g'or-tancha.

(Og'iz, tish)

Uycha to'la oq tovuq.

(Og'iz, tish)

Bir ustunda oq sadaf,
Qatorlashib turibdi.

(Og'iz, tish)

Sandiqchada saloqli,
Rangi oppoq, sanoqli.

(Og'iz, tish)

Hay, biz edik, biz edik,
O'ttiz ikki qiz edik,
Bir taxtaga tizildik,
Vaqti kelib uzildik.

(Tish)

Og'ildan chiqqan oq eshak,
Qaytib joyiga kelmas.

(Tushgan tish)

Katakdan qochgan oq tovuq,
Qaytib kelsa joyi yoq.

(Tushgan tish)

O'ttiz bo'ri bir joyga makon qo'ydi,
O'nta xizmatkor, ikkita qorovul qo'ydi.

(Tish, barmoqlar, ikki ko'z)

Ko'rinishi yoysimon,
Ostida sonsiz tikan.
Juda nozik chashmaga,
Shu tikan erur posbon.

(Qosh, kiprik)

Uch og'ayni bir otni oq dalada yeldirar?

(Uch barmoqning qalam ushlab yozishi)

Ikki qo'shni, ikki do'st,
Yonma-yon turishadi.
Yig'lashsa birga yig'lab,
Birga yotib turishadi,
Hammani bir ko'rishadi,
Baravar kulishadi.

(Ko'z)

«A» — desam, ochiladi,

«B» — desam, yopiladi.

(Lab)

Aqlga do'st bo'lsa, a'lo so'zlar,
Aqldan ayrilsa, balo so'zlar.

(Til)

Biri so'zlab, biri eshitar,

Biri esa o'ylab pishitar.

(Og'iz, quloq, miya)

Ikki aka-uka, bir-birini ko'rmas.

(Ko'z)

Ikki gavharni qirq qiz qo'riydi.

(Ko'z, kipriklar)

Ko'zga yaqin – ko'rolmaysan.

(Burun)

Uzun o'rim bor,

Boshimda ham emas,

Qoshimda ham emas.

(Soqol)

Qizil sandiqda o'ttiz ikki marjon.

(Tish)

Qo'riqlasang – do'sting,

Bo'sh qo'ysang – dushmaning.

(Til)

Besh aka-uka doim birga.

(Barmoqlar)

Ong va tafakkur



Ko'zga ko'rinmas, qo'lga tutilmas,
Boshda bo'ladi, yoshdan bilinmas.

(Aql)

Bir nafasda olam kezar.

(Xayol)

Yugurgandan o'tadi,
Bir lahzada yetadi.

(Xayol)

Uzoqning u yog'ida,
Yaqinning bu yog'ida.
Aslo ko'rinmas ko'zga,
Hech tinchlik bermas bizga.

(Xayol)

Bir to'kilsa,
Qayta to'lmas.
Ketib qolsa,
Qaytib kelmas.

(Obro')

Asaldan shirin,
Zahardan achchiq.

(So'z, gap)

Birovni suydinar,
Birovni kuydirar.

(So'z, gap)

Kinga asaldek yoqar,
Kingadir toshdek botar.

(So'z)

Og'zim ochdim, uchdi-ketdi,
Samarqandga borib yetdi.

(So'z, gap)

Og'izdan chiqquncha meniki,
Og'izdan chiqqani elniki.

(So'z, gap)

Otamdan bir meros oldim,
Yerga ko'msam chirimas.

(Ism)

Boldan shirin,
Yeb bo'lmas.

(Uyqu)

Kelib yetdi,
Yotqizib ketdi.

(Uyqu)

Ko'z yumib kino ko'rdim.

(Tush)

O'tda yonmas,
Suvga botmas,
Yerda qolmas.

(To'g'rilik)

Kim so'yladi –
O'zi uyaldi.

(Yolg'on so'z)

Yerga ko'milmaydi,
Kosaga quyilmaydi,
Dunyoda hamma odam
Ichmay qo'ymaydi.

(Qasam)

Kichkina — mitti,
Kelsa yiqitar.

(Uyqu)

O't emas, kuydiradi,
Pichoqmas, so'ydiradi.

(Yolg'on so'z)

O'zi keng,
Dengizdan chuqur.

(Fikr)

Bozordan topib bo'lmas,
O'shasiz yotib bo'lmas.

(Uyqu)

Asaldayin, yoqadi,
Aridayin, chaqadi.

(Gap, so'z)



Hayvonlar va jonivorlar



Suvday chopadi,
Manzil topadi.

(Ot)

To'rt oyoqli,
Temir tuyoqli.

(Ot)

Eshakdan tez chopadi,
Mashinadan o'tadi.

(Ot)

Suvga tushsa, mingta,
Suvdan chiqsa, bitta.

(Otning dumi)

Quyov emas,
Uzun quloq.
Ot ham emas,
To'rtta tuyoq.

(Eshak)

Bir echkim bor – soqoli yo'q.

(Eshak)

Qulog'i uzun, ovozi hangi.

(Eshak)

Oyog'i popuk,
Og'zi ko'pik.

(Tuya)

Ustida bukrisi bor,
Oyoqda tuflisi bor.
Shoshmasdan yuguradi,
Olis manzil yuradi.

(Tuya)

Bu yoqqa o'tdi lop-lop,
U yoqqa o'tdi lop-lop.
«Sho'ra» dedi, qo'ymadi,
Yutaverdi soplab.

(Tuya)

Jirafaday bo'yi bor,
Yelkasida uyi bor.

(Tuya)

Boraveradi, boraveradi,
Bo'yraday yerni olib yotadi.

(Sigir)

Ikki tortar,
Bir yirtar.

(Ho'kiz, omoch)

Oq-qoradan yamog'i,
Qo'lda bilinmas choki.

(Sigir olasi)

Luk-luk etib yuradi,
Sahroda ko'p bo'ladi.

(Tuya)

Kichkinagina bo'yi bor,
Qo'ng'irgina to'ni bor.

(Qo'y)

Baland tog'ning boshida
Bukri qo'chqor o'ynaydi.

(Alqor)

Soqoli bor,
Mo'ylovi yo'q.
Sochi bor,
Tarog'i yo'q.

(Echki)

Soqoli bor,
Aqli yo'q.

(Echki)

Hayvonlarning shaytoni,
Soqoli bor sultoni.

(Taka)

Yerda yurib,
Osmon ko'rmas.

(Cho'chqa)

Soyada yotar,
Ming qo'y boqar.

(It)

Mur-mur etib turadi,
Tinmay ortingdan yuradi.
Erkalatib qolsang gar,
Suykalib bezor qiladi.

(Mushuk)

Uyday joyda yotadi,
Sichqon ko'rsa qochadi.

(Fil)

Yo'l-yo'l to'ni bor,
Yuzlarida yoli bor.

(Yo'lbars)

Do'stim sherik bo'ladi,
Uyni qo'rib turadi.

(It)

El yotsa ham,
Shalpangquloq yotmas.

(It)

Mo'ylovi bor,
Soqoli yo'q.
Qulog'i bor,
Shoxi yo'q.

(Mushuk)

Tuya desam, kattakon,
Usti keng-u, bir makon.

(Fil)

Kelganda to'rt oyoq,
Ketganda ikki oyoq.

(Ayi)

Dalama-dala yurar,
Qo'y-u echki oh urar.

(Bo'ri)

Dumini ko'tarib yuradi,
Erkalanib turadi,
Itidan qo'rqib turadi.

(Mushuk)

Qulog'i eshaknikiday,
Ko'rinsang qochishga shay.

(Quyón)

Osti tikan, usti tikan.

(Tipratikan)

Tokchama-tokcha,
Azamat xo'ja.

(Sichqon)

Bir kulrang buzog'im bor,
Uyda gilar ham bezor.
Bozorga olib borsam,
Topilmaydi xaridor.

(Sichqon)

Yugursa itdan o'tar,
Indamasang qo'yni tutar.

(Bo'ri)

Shoxlari bor, qo'chqordek,
Toshga sakrar echkidek.

(Kiyik)

Jar bo'yida jar qilich.

(Jayra)

Uy qurar, qo'ymas eshik.

(Yumronqoziq)

Yer tagida ot kishnar.

(Sichqon)

Mitti cho'loq go'r qazir,
Go'r qazisa ham yo'l qazir.

(Kalamush)

Suvda tug'di,
Yerda o'ldi.

(Baliq)

Qishda bir joyda,
Yozda ming joyda.

(Baliq)

Qamish tagi qaltirar,
Suvda nima talpinar?

(Baliq)

Boshi boru sochi yo'q,
Ko'zi boru qoshi yo'q.
Tangasi bor, puli yo'q,
Qanoti bor, pati yo'q.

(Baliq)

Ko'zi yo'q, qanoti bor.

(Ko'rshapalak)

Qanoti bor – uchmaydi,
Quruqlikda yurmaydi.

(Baliq)

Suv tagida oltin baldoq.

(Baliq)

Joni bor qildan,
Suv ichar ko'ldan.
Ko'zlari nurdan,
Terisi tangadan.

(Baliq)

Botqoqzorda turadi,
Ko'ringanga huradi.

(Baqa)

Uzoq soyda it hurar.

(Baqa)

Hovuz yonida qaqildoq.

(Baqa)

Suv bo'yida to'riq ot.

(Baqa)

Suvli botqoq yerlarda

Suluv xonim o'tirar.

(Baqa)

Osti tosh, usti tosh,
O'rtasida chandir bosh.

(Toshbaqa)

Tog'-toshlarda toshtovoq,

Ichi to'la, go'shti yo'q.

(Toshbaqa)

Tosh ichida ilon ko'rdim.

(Toshbaqa)

Emaklagan tosh ko'rdim,

Toshdan chiqqan bosh ko'rdim.

(Toshbaqa)

Yer tagida ho'l gavron.

(Ilon)

Yer tagida yog'li qamchi.

(Ilon)

Ko'prik ostida yog'li hasip.

(Ilon)

Uzun ichak,

Uchi tugunchak.

Tanasi chipor,

O'rmalab chiqar.

(Ilon)

Doim buralib turadi,
Ko'ransangiz dumini buradi.

(Ilon)

Yerda sudralib yurar,
Jahli chiqsa tik turar.

(Ilon)

Uzun-uzun iz qolgan,
Zar kokilli qiz qolgan.
Boshi qaltiroq go'yo,
Ko'zi g'ilayroq go'yo.

(Ilon)

Targ'il popish,
Devorga yopish.

(Kaltakesak)

Yer tagida qizil xivich.

(Chuvalchang)

Yer qazidim, uy qildim,
Qizil ipga o'raldim.

(Chuvalchang)

Erta turadi,
Tomda yuradi.

(Xo'roz)

Boshi taroq,
Dumi o'roq.

(Xo'roz)

Tongni poylab turadi,
Devorda tik yuradi.

(Xo'roz)

Bir qo'shnim bor avval boshdan,
Soqoli bor qizil go'shtdan.
Sahar turib shovqin solar,
Xabari yo'q hech bir ishdan.

(Xo'roz)

Ovoz berar azonda,
Mazasi bor qozonda.

(Xo'roz)

Saharda so'fisi turar,
Uychada bibisi yurar.

(Xo'roz, tovuq)

Jonlidan jonsiz chiqar,
Jonsizdan jonli chiqar.

(Tovuq, tuxum, jo'ja)

Kasbi ham taqir-tuqur,
Ilonni ko'rsa cho'qir.

(Laylak)

Oyog'i bor uzun-uzun,
Ilon ko'rsa qo'ymas bir zum.

(Laylak)

Bir qushim bor farangi,
Chorbog'da chalar changni.

(Sa'va)

Boyning o'g'li oyga qarab kuylaydi.

(Boyo'g'li)

Liking-liking yo'rg'asi,
Og'zida baxmal to'rvasi.

(Kaklik)

Zebogina tovushi,
Paxmoqqina kovushi.

(Kaklik)

Tog'ni oshib keladi,
Og'iz-boshi xinoli.

(Kaklik)

Saroyda sari otim,
Yakka o'zi kishnaydi.
To'qayda to'riq otim,
To'pi bilan kishnaydi.

(Kaklik)

Surp ko'ylaklik,
Selon kamzullik.

(Olashaqshaq)

Liking-liking yo'rg'asi bor,
Kumush rangdan sirg'asi bor.

(Olashaqshaq)

Atlas ko'ylak qanoti,
Xush xabarchi odati.

(Zag'izg'on)

Yozda keladi,
Qishda ketadi.

(Zag'izg'on)

Qishin-yozin bir xil choponda.

(Qarg'a)

Gul ustida olifta ashulachi.

(Bulbul)

Ayvonda uy quradi,
Sizga qarab turadi.
Bolasi ikki-uchta,
Onasi keladi tushda.

(Qaldirg'och)

Kichkina polvon ishlaydi,
Tomdan o'tin tashlaydi.

(Chumchuq)

Mening oppoq o'tovim,
Eshik, oynasiz doim.

(Tuxum)

Gul shoxida o'ynaydi,
Ashulasi tinmaydi.

(Bulbul)

Oq sandiq –
Og'zi yo'q sandiq.

(Tuxum)

Olovga tushsa muz bo'lar.

(Tuxum)

Pishirsa – osh bo'lar,
Pishirmasa – qush bo'lar.

(Tuxum)

Bir kosada ikki ovqat.

(Tuxum)

Bir piyolada ikki sharbat.

(Tuxum)

Bir uyda ikki o'rtoq,

Biri sariq, biri oq.

(Tuxum)

Daraxtda paxsa beshik.

(Qush uyasi)

Kichkina mitti,

Shox tirab suv ichdi.

(Ari)

Zuv-zuv borar,

Zuv-zuv kelar.

Doston o'qir,

G'alvir to'qir.

(Ari)

Iniga tegib ketsang,

Ahvolini ko'rasan,

Nayzasin sanchib olsa,

Yuzingni ham burasan.

(Ari)

Tutdan ko'ylak to'qiydi.

(Ipak qurti)

Ko'k yeb, oltin o'raydi.

(Ipak qurti)

Daraxt shoxida tuxum.
Kiyim bo'ladi bir kun.

(Ipak qurti)

Bir qushim bor, suyagi yo'q.
Guli bor-u, ipagi yo'q.

(Kapalak)

Qanoti bor,
Qoni yo'q.
Tuxum qo'yar –
Soni yo'q.

(Kapalak)

O'zi yo'qdek,
Tovushi o'qdek.

(Qora chigirtka)

O'tirishi tulkidek,
O't yeyishi yilqidek.

(Chigirtka)

Ho'kiz shoxli,
Buqa bo'yin,
Qiyg'ir qanot,
Arra oyoq.

(Qora chigirtka)

O'zi qora, qanotli,
Shoxlari bor, tirnoqli.

(Qo'ng'iz)

Qora-yu, qarg'a emas,
Shoxi bor, ho'kiz emas.

Olti oyoq – tuyoqsiz,
Barmoqsiz-u tirnoqsiz.

(Qo'ng'iz)

Is biladi, it emas,
Ini bor – tulki emas.
Qanoti bor uchadi,
G'o'ng'illaydi, qush emas.

(Qo'ng'iz)

Bir otim bor ajabgina,
Dumlari bor gajakkina.
Hali kelsa ko'rasiz,
Kula-kula o'lasiz.

(Chayon)

Beli-beli belang ot,
Beli nozik kurang ot.
Toqqa minsa toymas ot,
O'lat tekxa, o'lmas ot.

(Chumoli)

Qishin-yozin ishlaydi,
Don-dun izlab tinmaydi.

(Chumoli)

Izin topib yuradi,
Bitta qator turadi.
Tinmay mehnat qiladi,
Hamma joyda yuradi.

(Chumoli)

Tog'dan to'ymas qora ot,
Yolin buzmas sara ot.

(Chumoli)

U yoqdan-u, bu yoqdan,
Karvoni o'tar tog'dan.

(Chumolilar)

Uzun ko'cha, tor ko'cha,
Ichi to'la bolacha.

(Chumoli uyasi)

Qatorma-qator,
Zanjirdek ketar.

(Chumolilar)

Uzun-uzun ulog'i,
Yo'llariz tuzog'i.

(Chumoli)

Joni bor-u, qoni yo'q,
Yer ostida soni yo'q.

(Chumoli)

Mingta qo'yim sig'adi,
Bir bog' bedam sig'maydi.

(Chumoli uyasi)

To'r bilan o'rab olgan,
Pashshaga zanjir solgan.

(O'rgimchak)

Kichkina-mitti,
Chimillab ketdi.

(Chivin)

Viz-ziz, viz-viz, viz-vizak,
O'zi kichik tirmizak.
Qishda gumdon bo'ladi,
Yozda har yon turadi.

(Chivin)

Beli qildek ingichka,
Boshi kattakon buncha.

(Chumoli)

Bir burchakda turadi,
Unda-bunda yuradi.
Oyog'i uzun naycha,
Tanasi kichik buncha.

(O'rgimchak)

Doim savat to'qiydi,
Ilinganni cho'qiydi.

(O'rgimchak)

O'zi yo'qday, botirim,
Ovozi o'qday, botirim.
Bitta shapaloq bilan
O'lib qolgan, botirim.

(Pashsha)

Zulukday yopishadi,
Har yerdan topishadi.
O'zi kichkina tugma,
Tirigin ko'rsang qo'yma.

(Kana)

Qorong'i tom ichida
Qora buzoq dirkillar.

(Burga)

Albar-jalbar yo'rtadi,
Ushlay desam, hurkadi.

(Burga)

To'qay ichida to'ng'iz.

(Bit)

Tog'da turar, u nima?
Bog'da bo'lar, u nima?
Suvda suzar, u nima?
Ko'lda kular, u nima?

*(Kaklik, bulbul, baliq,
qurbaqa)*

Minglab ignani ko'rdim,
Teshigi yo'q birovini.
Dumalab ketaverar,
Burnini cho'zib turar.

(Tipratikan)

Qo'l-oyoqsiz yurar arqon.

(Ilon)

Kiygan kiyimi o'ziga emas.

(Ipak qurti)

Minglab ishchi ishlaydi.
Tartibini buzmaydi.

(Asalari)

Ikki yaproq bir tanda,
Kezar yozda chamanda.

(Kapalak)

Soch tolidan ingichka,
Yuradi ip ustida.

(O'rgimchak)

Hayvonlardan qaysi birining
Nomi ikki tomondan ham bir xil?

(Kiyik)

Kunduz kuni topolmaysan,
Kechalari tutolmaysan.

(Ko'rshapalak)

O'rkach, o'rkach tog' dedim, o'rtasiga o'tirdim,
Yerga tushsa loy qilar, olamni ham boy qilar.

(Tuya)

Qulog'i uzun, dumi kalta.
Doim ustida yurar xalta.

(Fil)

Suvda yashar bir hayvon,
O'zi juda ham polvon.
Qalindir uning tani,
Tanida bor fontani.

(Kit)

To'rtta oyoq,
Temir tuyuq.
Yeldek chopar,
Manzil topar.

(Ot)

Quyvon emas –
Uzun quloq.
Qulun emas –
To'rtta tuyuq.

(Eshak)

Bo'yi pastak,
To'ni jingalak.

(Qo'zichoq)

Mo'ylovi bor,
Soqoli yo'q.

(Mushuk)

Shalpangquloq, burni uzun.

(Fil)

Yo'l-yo'l to'ni yarashar,
Sollanib qadam tashlar.

(Yo'lbars)

Itga o'xshash, uvlaydi,
Qo'y-echkini qo'ymaydi.

(Bo'ri)

Sakraydi toshdan-toshga,
Shoxlari bor boshida.

(Kiyik)

Momig'-u uzunquloq,
Ushlay olmaysiz biroq.

(Quyvon)

Tikan-tikan to'ni bor,
O'zi juda beozor.

(Tipratikan)

Kulrang xo'ja qop teshar.

(Sichqon)

Qanoti bor uchmaydi,
Suv ostidan chiqmaydi.

Tanga-tangadir to'ni,
Ovozi yo'qdir uni.

(Baliq)

Temir kiyimli sardor,
Suv tagini qo'riqlar.

(Akula)

Soy bo'yida valdirvoqi.

(Qurbaqa)

Turar sendan ertaroq,

Dumlari rangli, taroq.

(Xo'roz)

Mittigina joni bor,

Zuv-zuv uchib boradi.

Teginib ko'rma zinhor,

Birdan chaqib qoladi.

(Ari)

Qora, yaltir askarlar,

Mehnat qilib to'ymaydi.

Tizilsalar bitta saf

Sira buzib bo'lmaydi.

(Chumoli)

Rangli qanot

Gulga qo'nar.

(Kapalak)

Yer tagida arg'amchi.

(Ilon)

Bo'yni uzun, rangi oq,

Uxlar turib bir oyoq.

(Laylak)

Shohi bor, qanoti bor,

Yer kavlaydi qoravoy.

(Qo'ng'iz)

Mehnat qilib, tinmaydi,

Uyin buzsang qo'ymaydi.

(Asalari)

Ashulasi chirildoq,
Ekinga tushsa – chatoq.

(Chigirtka)

To'r to'qib, uy soladi.

(O'rgimchak)

Tog'da ulaymonni ko'rdim,
Suvda sulaymonni ko'rdim,
Betuz pishgan oshni ichdim,
Yo'lda qotgan toshni ko'rdim,
Topchi men nimani ko'rdim?

(1. Bo'ri. 2. Baliq. 3. Sumalak. 4. Toshbaqa)



Meva va sabzavotlar



Kichkina qozon – oshi totli.

(Yong'oq)

Kichkina dekcha,
Ichi yog'li kulcha.

(Yong'oq)

Qo'shaloq tovoq,
Ichi to'la yog'.

(Yong'oq)

U yog'i tog',
Bu yog'i tog',
O'rtada sariq
Mag'iz bor.

(Yong'oq)

Kichkina tandircha,
Ichi to'la kulcha.

(Yong'oq)

Usti tosh, osti tosh,
Toshning ichi shirin osh.

(Yong'oq)

Belbog'i bor usti tosh,
Mag'zi shirin davodir.

(Yong'oq)

Beli bog'liq, cho'tir chol,
Qo'ynida ham non bor.

(Yong'oq)

Kichkina xotin shoshag'on,
Kichkina qozon toshag'on.

(Yong'oq)

Ikki tog' orasida
Bir tup yantoqdek daraxt.

(Bodom)

Qo'tir tosh –
Ichi osh.

(Bodom)

Go'sht ichida tosh,
Tosh ichida osh.

(Danak mag'zi)

Bodom kabi yaprog'i,
Sollanadi butog'i.

(Shaftoli)

Mallagina to'ni bor,
Nordongina ta'mi bor.

(Behi)

Qopcha,
Qopcha ichida uncha,
Uncha ichida ustuncha.

(Jiyda)

Tashi qizil anorday,
Ichida oppoq unday.
O'tirishi ham gulday.

(Jiyda)

Osh ichida tosh,
Tosh ichida osh.

(O'rik)

O'zi shirin, tukligina,
Mazasi bor totligina.

(Shaftoli)

Sariqangga kiradi,
Tukli po'stin kiyadi.

(Behi)

Dum-dumaloq bo'yi bor,
Palovda obro'yi bor.

(Behi)

Ichi un-un,
Tashi gulgun.

(Jiyda)

Osmondan tushdi tugun,
Usti baxmal – ichi un.

(Jiyda)

Otasi bukri,
Onasi yoyma.
Bolasi qanddek,
Bandi bordek.

(Tok bargi, uzumi)

Bir onada yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola.

(Tok, uzum)

Qora ho'kizim – og'ilga
kirishda dumini yuldim.

(Qora mayiz)

Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.

(Anor)

Qizil, sariq to'ni bor,
Ichi to'la doni bor.

(Anor)

Bir qasrda sakkiz uy,
Har uychada o'ttiz qiz.

(Anor)

Yozda maza qilasiz,
Qishda dumin terasiz.
Oqmi-qora, ham qizil,
Nomin o'ylab tezda bil.

(Uzum)

Gulsiz bo'lar mevasi,
Shirin-shakar donasi.

(Anjir)

Osti sariq, usti sariq,
Shirin, totli, ichi tariq.

(Anjir)

Qamchi dastada marjon.

(Do'lana)

Tog'da ko'plab o'sadi,
Quyosh nurin to'sadi,
Xurmoga o'xshar nechuk,
Xurmodan ancha kichik.

(Do'lana)

Tepdim – sandiq ochildi,
Yerga bodom sochildi.

(Do'lana)

Xo'ppa semiz,
Bir tuki yo'q.

(Tarvuz)

Palakda yaltir-yultur,
Ustida yo'l-yo'l to'ndir.

(Tarvuz)

Ko'kkina qo'zim,
Semirar o'zi.

(Tarvuz)

Yumaloq biyning otin top.
Usti qizil – ichi ko'k.

(Tarvuz)

Zar-zar to'ni bor,
Xushbo'y bo'yi bor.

(Qovun)

Sarg'ish betlik,
Shirin etlik.
To'rga tushib
Qolgan pishib.

(Qovun)

Bozordan olsang,
Ham o'zing yeysan.
Ham tovug'ing yeydi,
Ham sovlig'ing yeydi.

(Qovun)

Bozordan bir narsa ol,
Ham o'zing ye, ham tovug'ing yesin,
Ham moling yesin.

(Qovun)

Sirdaryodan kelgan fil,
Yo'l-yo'l to'nli, yo'g'on bel.

(Qovun)

Oppoq, semiz, sariq to'q,
Terisi qalin, juni yo'q.

(Oshqovoq)

Devorga arqon bog'lab,
Shapaloq yaproq solgan.

(Oshqovoq)

Yoshligida mazali,
Semirganda mazasiz.

(Bodring)

Mayda, yashil, uzunchoq,
Ichi to'la zirachak.

(Bodring)

Qat-qat to'nli,
Qarich bo'yli.

(Karam)

Qat-qat quloq,
Dum-dumaloq.

(Karam)

Yer tagida oltin bosh.

(Sholg'om)

Yer tagida qizil musht.

(Sholg'om)

Kalta bobom ichkarida,
Quloqlari tashqarida.

(Sholg'om)

Yer tagida mushtdek go'sht.

(Lavlagi)

Yer tagida oltin qoziq.

(Sabzi)

Sari bobom ichkari,
Soqollari tashqari.

(Sabzi)

Qizg'ish qiz yer ostida,
Sochlari yer ustida.

(Sabzi)

Yashil bargli, sallali
Soqollari sap-sariq.

(Sabzi)

Iyagi yerga qaragan,
Soqolin ko'kka buragan.

(Sabzi)

Pasttakkina bo'yi bor,
Yetti qavat to'ni bor.

(Piyoz)

Yer tagiga kokil solgan.

(Piyoz)

Yer tagida oq parik,
Ko'ylagi qat-qat harir.

(Piyoz)

Qirq qat ko'ylak –
Tugmasi yo'q.

(Piyoz)

Urmasdan yig'latar,
Ayamasdan yig'latar.

(Piyoz)

Yer tagida qat-qat to'nda,
Sho'rva qilsang kelar kunda.

(Piyoz)

Yer tagida yashil bosh.

(Turp)

Bir barmoqcha bo'yi bor,
Qizil shoyi to'ni bor..

(Garmdori)

Qizilgina ko'zacha,
Ta'mi achchiqdir shundak.

(Garmdori)

Bizlar, bizlar biz edik,
Qizil ko'ylak qiz edik.
Birin-ketin uzdilar,
Bitta ipga tizdilar.

(Garmdori)

Yer ustida oq quyruq.

(Qo'ziqorin)

Qonga o'xshar – qoni yo'q,
Bolasining soni yo'q.

(Garmdori)

Daraxtida to'q-qizil,
Go'yo olma pishibdi.
Ikkiga ochsang bir-bir,
Munchoqlar tushibdi.

(Anor)

Qip-qizil-u, anormas,
Cho'g'ga o'xshar, yonolmas.
Mo'ralaydi egatdan,
Joy oladi savatdan.

(Qulupnay)

To'ni silliq, tuki yo'q.
Ichi qizil, ko'ki yo'q.
Uni cho'qimas chumchuq.
Po'sti qattiq,
Mag'zi to'q.

(Tarvuz)

Makonidir dalalar,
Yer tagida bolalar.
Bir tanada sho'x-shodon,
Aka-ukalar tirmashar,
Uning bir donasi ham,
Ovqatga maza qo'shar.

(Kartoshka)

Yum-yumaloq, oy emas,
Sap-sarig'-u — moy emas.
Dumi bor-u, toy emas.
Po'sti qizil, oq emas.

(Sholg'om)

Yashab yetmish yetti kun,
Kiyar yetmish yetti to'n.
Kuzda uzib olinar,
Ovqatlarga solinar.

(Karam)

Yozda ham qat-qat cho'pon,
Qatorlashib turishar.
(Karam)

Qizil rangli tuguncha.

(Pomidor)

Yumalatsam joni yo'q,
Bo'g'izlasam qoni yoq.
(Tarvuz)

Shakli xuddi shar,
To'ni beqasam.
Mazasi shakar,
Men totib ko'rsam,
O'zgacha bir ta'm.

(Tarvuz)

Qavat-qavat ko'ylagi bor,
Tugmasi yo'q.
(Karam)

Ko'k beqasam to'ni bor,
Ichi baxmal lolazor.
Mazasi shirin, go'yo qand,
Uni yegan tortmas dard.

(Tarvuz)

Qat-qat quloq,
Dum-dumaloq.

(Karam)

Lo'ppi, lo'ppi muloyim,
Tukli yuzi chiroyli.

(Shaftoli)

Xaltacha,
Xaltacha ichida un,
Un ichida ustun.

(Jiyda)

Qat-qat to'nli,
Qarich bo'yli.

(Karam)

Yer tagida qizil bosh.

(Sholg'om)

Yuzta dona guj bo'lishib,
Bir bandda turar to'lishib.

(Uzum)

Gulsiz meva qilibdi,
Boli tilni tilibdi.

(Anjir)

Sochi uzun malika,
Qat-qat yashil ko'ylagi.

(Makkajo'xori)

Usti boldek, ichi danak,
Yesang, quvvat olar yurak.

(O'rik)

Ko'm-ko'k, sariq guloyim,
Qizil yuzi chiroyli.
Turar shoxda mo'ralab,
Terib oling saralab.

(Olma)

Archsang, yig'latadi.

(Piyoz)

Qizil qizim jikkakkina,
Achchig'i olamni buzadi.

(Garimdori)

Yerdan chiqdi yumalab,
Do'ndiq, oppoq bolalar.

(Qo'ziqorin)

Xo'ppa semiz,
Bir tuki yo'q.

(Tarvuz)

Yo'l-yo'l to'nli pakana
Palakda yotar dumalab.

(Qovun)



O'simlik va daraxtlar



Hasan aka bo'yi rost,
Bolalari qarsakboz.

(Terak, barglari)

Yozda ham qishda,
Bir kiyim-boshda.

(Archa)

Yashil sandiq ochildi,
Ichidan dur sochildi.

(G'o'za)

Og'zin ochib yerga boqar,
Og'zidan oq ko'pik sochar.

(Paxta)

Ildizi yerda,
Yulduzi ko'kda.

(Paxta)

Bolalari qarsak chaladi,
Onalari tikka turadi.

(Terak, barglari)

Onasi qarab qolar,
Bolasi bozor chopar.

(Mevali daraxt)

Chopsang kular,
Chopmasang o'lar.

(Paxta)

Qorday oppoq,
Yungday yumshoq.
O'zi yengil,
Oltinga teng.

(Paxta)

Kichkinagina xurmacha,
Og'izlari burmacha.
Ichi to'la suv bo'lar,
Pishsa, qimmat dur bo'lar.

(Ko'sak)

Yerdan ko'karib chiqar,
Bag'ridan oltin oqar.

(Paxta)

Bizning rizq-u ro'zimiz,
Ham nonimiz, ko'zimiz.

(Bug'doy)

Qizilini o'zim yedim,
Sarig'ini molga berdim.

(Bug'doy, somon)

Bizning uyda bir qiz,
Boshida uzun qil qiz.

(Sholi)

Taram sochli qiz to'dasi,
Suvda yotar kun-kechasi.
Suvda yotib suvga tegmay
Sarg'ayadi bari birday.
Sakson kunda saboqdadir,
To'qson kunda tovoqdadir.

(Guruch)

Momiqqina onasi,
Yog'liqqina bolasi.

(Paxta, chigit)

O'zi ariq,
Rangi sariq,
Yuzi qizil,
Boshi qiltiq.

(Bug'doy)

Kichkina qiz,
Qo'lida bigiz.

(Sholi)

Kichkinagina to'ni bor,
Uchida uzun qili bor.

(Sholi)

Sariq sochli malagim,
Bir qatorda saragim.
Ham don, ham uy bo'ladi,
Xirmon yana to'ladi.

(Makkajo'xori)

Sariboy bobom ichkari,
Soqollari tashqari.

(Jo'xori)

Mingta alp ham og'adir,
Ming o'raga sig'adir.

(Jo'xori)

Ko'k kiyimli askarlar,
Safga turib olishgan.
Qo'llarida sariq soch,
Bir xil o'rib olishgan.

(Jo'xori)

Bo'yi bir qarich,
Soqoli ikki qarich.

Sochi sariq,
Bolasi g'ij-g'ij.

(Makkajo'xori)

Bir uya ustida ming ari,
Bari menga teskari.
Qavat-qavat o'ramli,
Silasam chiqdi tashqari.

(Jo'xori)

Ko'k ko'ylakli xotin,
Sariq bola ko'targan.

(Jo'xori)

Qiya-qiya yerlarda
Qiyma juvon o'tirar.
Sochlarini yoyvolib,
Tolma juvon o'tirar.

(Oqjo'xori)

O'tirishi boyvachcha,
Ko'zlari oppoq oycha.
Gerdayib boqib turar,
Quyoshga yoqib turar.

(Oq jo'xori)

Dumaloq polvon –
Belbog'i qora.

(Loviya)

Bir daraxtga osilgan,
Chopon kiygan askarlar.
Askar polvon deyishar,
Maza qilib yeyishar.

(No'xat)

Yashil oshim toshsiz bo'lmas.

(Mosh)

Qirq butoqda qirq uya,
Qirq uyada qirq tuxum.

(Tariq)

Uzun-uzun ko'chalar,
Ichi to'la bachchalar.

(Loviya)

O'zi pishiq –
Burni qiyshiq.

(No'xat)

Yashil toshim oshga tushdi,
Pishib qatig'i chiqdi.

(Mosh)

Oltin sochdim-ku tojdor –
Bunga hamma xaridor.

(Tariq)

Kunga qarab tolmaydi,
Kundan ko'zni olmaydi.
Kunga salom beradi,
Qaddin rostlab keradi.

(Kungaboqar)

Bir tanada
Ming dona.

(Kunjut)

Kichkinagina kelinchak,
Boshlarida tugunchak.
Hidi olamni tutar,
Tutashin hamma kutar.

(Isiriq)

Ichi qora, qizil yaproq.

(Qizg'aldoq)

Qizlarxonning boshida
Qizil baxmal do'ppi bor.

(Qizg'aldoq)

Eksang bitar, guloyim,
Hidi tutar, guloyim.
Chakkaga taqib olib,
Buvim kular muloyim.

(Rayhon)

Ko'm-ko'k tusi,
Xushbo'y isi.

(Rayhon)

Ariq bo'yi ko'k to'shak.

(Maysa)

Uzun terak -
Ichi kovak.

(Qamish)

Zil terak –
Suvdan darak.

(Qamish)

Soqolli bobom o'tkir tig'da,
Ushlasam, kesadi shu onda.
Suvga qarab qaltirar,
Kecha-kunduz tik turar.

(Qamish)

Biz, biz edik,
Nozikkina qiz edik.
O'rib – uzdilar,
Ipga tizdilar.

(Qamish)

Qator-qator turganlar,
Suvga kirib yurganlar
Boshiga telpak kiyib,
Sarak-sarak qilganlar.

(Qamish)

Og'zi yo'g'-u
Odamni tishlar.

(Tikan)

Lip etadi, kirib ketadi,
Chiqarguncha esing ketadi.

(Tikan)

Ilon kabi chaqib oldi,
Zahri ko'rinib qoldi.

(Tikan)

Qishda uxlab yalang'och,
Bahor qo'yar yashil soch.

(Tol daraxti)

Bir do'stim bor yashil to'nin,
Qancha tortmay yechmaydi.

(Archa)

Kosasida toshib turar,
Dala husnin ochib turar.

(Paxta)

Onasidan kiyim-boshim,
Bolasidan yog'li oshim.

(Paxta)

Usti kiyim-bosh bo'ladi,
Mag'zi oshga yog' bo'ladi.

(Paxta)

Yo'rgaklangan malikam,
Tilla sochi bir tutam.

(Makkajo'xori)

Boshida bor kokili,
Belidadir hosili.

(Makkajo'xori)

Kiyik ko'zli, qalam qosh,
Undan bo'lar shirin osh.

(Loviya)

Cheti gulli patir non,
Ichi to'la g'ij-g'ij don.
Oftobni xush ko'radi,
Salom berib turadi.

(Kungaboqar)

Son-sanoqsiz qilichli,
Uzun bo'yli bahodir.
Yotar suvning ichida,
Shovillab bexavotir.

(Qamish)

Tog'da, bog'da yashaydi,
Qishin-yozin yashnaydi.

(Archa)

Qo'shaloq tovoq, ichi to'la yog'
Qor emas – oppoq, par emas – yumshoq.

(Paxta)

Qishin-yozin bir xil kiyimda.

(Archa)

Kunga qarab kuladi.

(Kungaboqar)

Eksang, ko'payib ketar,
Hidi olamni tutar.

(Rayhon)

Qordek oppoq,
Pardek yumshoq.

(Paxta)



Oziq-ovqatlar



Oq qo'yim bor,
Yotib semirar.

(Xamir)

Oq qo'yim bor – joni yo'q,
Mushtlab, so'ysam qoni yo'q.

(Xamir)

Yumalatsam – joni yo'q,
Yulib olsam – qoni yo'q.
Dam berib qo'yiladi,
Pishganda yeyiladi.

(Xamir)

Xom soldim,
Pishiq oldim.

(Yopilgan non)

Sovuq kirib,
Issiq chiqar.

(Yopilgan non)

Oqarib kirib,
Qizarib chiqar.

(Yopilgan non)

Oq otdim,
Qizil oldim.

(Yopilgan non)

Qorong'ida shivir-shivir.

(Shovla)

Qozon ichi oppoq qor,
Sutga pishgan, saryog' sol.

(Shirguruch)

Qaynab yotgan quduqqa
Uzun-uzun ip soldim.

(Ugra)

Ip eshib suvga soldim.

(Ugra)

Kesdim – Qozonga tashladim.

(Ugra)

Bukdim, oldim,
Suvga soldim.

(Chuchvara)

Bir qozondan qirq quloq.
Qirqtasi ham qo'sh quloq.

(Chuchvara)

Ming tuguncha suvga tushdi.

(Chuchvara)

Tugun mitti,
Qulog'i qattiq.
Qozonga solsam,
Yumalab yotdi.

(Chuchvara)

Osh pishirdim, tuzi yo'q.
Kavlayversam toshi ko'p.

(Sumalak)

Suv emas – suyuq,
Qor emas – oppoq.

(Sut)

Yetmish yetti dardga davo.

(Qatiq)

Sutdan quyuq, suzmadan suyuq.

(Qatiq)

Palovning ostida,
Suvning ustida.

(Moy)

Zarra-zarra – qor emas,
Oppoq, ammo un emas.

(Shakar)

Qizil guruch sochvordim,
Temir otim yutvordi,
Birpas turib qarasam,
Hamma yog'i qor bo'ldi.

(Tegirmonda un qilish)

Suvga tushsa, yo'qolar,
Qo'lga yopishib qolar.

(Pashmak)

Vatanidur Hindiston,
Ko'k hamda qora rangda.
Suvga tushar mehmonjon,
Ichishar hamma joyda.

(Choy)

Ko'pchilik xush ko'radi,
Yutmay chaynab yuradi.

(Saqich)

Alomat-a, alomat,
Ichi qizil qiyomat.

(Tandir, non)

Suvlab uzdim -
Quruq chiqdi.
Biroz ketsam,
Kuyib chiqdi.

(Non)

Xo'roz desam qand,
Qand desam xo'roz.
Bu nimaligin,
O'ylachi biroz?

(Xo'rozqand)

Qizil xumning ichida
Qizaradi oq yuzlar.

(Tandir, non)

Yozda salqini yaxshi,
Qishda yolqini yaxshi.

(Choy)


Bir qiz ko'rdim bo'yni uzun,
Qorni katta, ichi do'm-do'm.

(Uzun oshqovoq)

Yer tagida turaman,
Yomg'ir yog'sa chiqaman.

(Qo'ziqorin)

Narsa va buyumlar



Bizning uyda to'rt kampir,
To'rtovi ham mard kampir.

(Savag'ich)

Qo'lsiz, qalamsiz,
Bo'yoqsiz rasm chizar.

(Ayoq, qirov)

Biznikida bir kishi,
Og'zida qirqta tishi.

(Jun taroq'i)

Oppoq kuchuk aylanaveradi,
Qorni ham to'yib ketdi.

(Urchuq)

G'uv-g'uv-g'uv etar,
To'ysa yumalab ketar.

(Urchuq)

U yoqqa o'tar qizgina,
Bu yoqqa o'tar qizgina,
Qulogiga ip taqib,
Shildirab ketar qizgina.

(Moki)

Bir g'ozim bor qag'llar,
Qanotlari shaqillar.

(Moki)

Urdim – gup etdi,
Yer tagiga kirib ketdi.

(Ketmon)

Yugurib, chaqqon o'tadi,
Yerni yorib ketadi.

(Ketmon)

Joni yo'qdek botirim
Ishlayverar betinim.

(Ketmon)

Yuzi temir,
Qulog'i qattiq.
Yerga solsam.
Kirib ketdi.

(Bel)

Bolta emas chopadi,
Duradgorga yoqadi.

(Tesda)

Tushgan yerini kesar.

(Tesda)

G'iz-g'iz etib, ishlaydi,
Yerga kukun tashlaydi.

(Arta)

Qora tuya qaltirar,
Qobirg'asi yaltirar.

(Arta)

Og'zi yo'g'-u,
Tishi ko'p.
Ko'cha-ko'yda,
Ishi ko'p.

(Arta)

Tushgan yerini uzar.

(Ombur)

Og'zini ochar,
Tishlab qochar.

(Ombur)

Boradir, boradir,
O'sha joyda qoladir.

(Zambil)

Yer tagida oy yurar.

(Omoch)

Yer ostida oy borar.
Qulog'ida loy borar.

(Omoch)

O'zi yerning ostida,
Kuchi yerning ustida.
O'ttiz ikki og'ayni,
Bir-birining ustida.

(Chig'iriq)

G'iyq-g'iyq etadi,
Zig'ir chaynab ketadi.

(Juvoz)

Suv bo'yida charxpalagim g'ichirlar.

(Tegirmon)

Bug'doy kirar,
Un chiqar.

(Tegirmon)

Ko'p yeydi, tez yeydi,
Mayda chaynayman, – deydi.
O'zi yuta olmaydi,
Yeyveradi, to'ymaydi.

(Tegirmon)

U nimadir, quv yog'ochdan og'zi bor,
U nimadir, o'rtasida mag'zi bor,
U nimadir, yelkasida og'zi bor,
U nimadir, suv ostida qimirlar.

(Tegirmon)

Og'zi do'ppidek,
Ichi xumdek.

(Tandir)

Og'zi xumdek koptogim,
Ichi yonar koptogim.

(Tandir)

O'zi bitta,
Qulog'i to'rtta.

(To'rt quloqli qozon)

Qora botir otdan tushsa,
Askarlari o'rab olar.

(Qozon, tovoq, kosa)

Osti imorat,
Usti imorat,
O'rtasi otashxona,
Choy qaynar faqat.

(Samovar)

Suv desam, suv emas,
Shildiraydi bir narsa.
O't desam, o't emas,
Yaltiraydi bir narsa.
Boshiga telpagin olib,
Biqirlaydi bir narsa.

(Samovar)

Qora tovuq,
Qorni to'q.
Qulog'i bor,
Burni yo'q.

(Qozon)

Qora boy yiqildi,
Bolalari yig'ildi.

(Qozon, tovoq, kosa)

Ich i qora ko'mirday,
Tishi sariq ipakday.
O'tirishi mulladay,
Rangi kumush, tilladay.

(Samovar)

Katta bobom semiradi,
Kichkinaga egiladi.

(Choynak)

Suvni yaxshi ko'radi,
Ushlasang, burnin buradi.

(Choynak)

Ro'parada turibdi,
Yuzi dumaloq, lo'ppi.
Bir qulog'i bor uni,
Boshiga kiygan do'ppi.

(Choynak)

Onasiga bolalar
Yugurishib borarlar.

(Choynak, piyola)

Hamma kishi peshonasidan o'par.

(Piyola)

Mehmon keldi,
Yugurib ketdi.
Qo'liga chiqib,
Og'ziga yetdi.

(Piyola)

Borayotganda och,
Kelayotganda to'q.

(Ko'za)

Qorni qopday,
Bo'yni nozik.

(Xum)

Uzun terak -
Ichi kovak.

(Kuvi)

Otasi og'zin ochar,
Bolasi urib qochar.

(Keli)

Taltayib turadi,
Tarsillab uradi.

(Keli)

Tap-tap etadi,
Tagidan karvon o'tadi.

(Elak)

Yangi idish,
Tagi teshik.

(Elak)

Bir o'zi,
Ming ko'zi.

(Elak)

Yaltir mitti,
Echkini yiqitdi.

(Pichoq)

Ishini bitirdi,
Yonboshlab o'tirdi.

(Supurgi)

Yalmog'iz buvim ketdi,
Osmon-falakka yetdi.

(Supurqi)

Eshik orqasida beli bog'liq qul yotar.

(Supurgi)

Belin bog'lab o'ynaydi.

(Supurgi)

Qo'ngan yerda turadi,
Uy tozalab yuradi.

(Supurgi)

Og'zi bor-u, joni yo'q.

(Qop)

Yotsa, turmas,
Tursa, yotmas.

(Qop)

G'ishtim qo'lda yo'rg'alar,
Yurgan yo'li oqarar.

(Sovun)

Bo'yni bitta,
Qo'li ikkita,

(Chilim)

Ustida o't yonadi,
Tagida suv qaynaydi.

(Chilim)

Uzun terak turib ketdi,
To'q – to'q etib yurib ketdi.

(Hassa)

El olmasa, ellik yil yotar,
Har zamon ham barchaga yoqar.

(Oltin)

Yerda chirimaydi,
Elda yo'qolmaydi.

(Oltin)

Kichkina minnas,
Olam kezib tinmas.

(Tanga pul)

Temir tugmacham,
Qo'ldan qolmaydi.

(Tanga pul)

Bir oyog'in osib turar,
Bir oyog'in bosib turar.

(Tarozi)

Ikki og'a-inini bir ustunga bog'ladim.

(Tarozi)

Ikki singil,
Og'ir-yengil.

(Tarozi)

Yumaloq tepada qilich o'ynar.

(Ustara)

Chin qushim, chinni qushim,
Chin tepaga qo'ndi qushim.
Qanotini yoydi qushim.
Tanobini tortdi qushim.

(Chodir)

Xitoy qush qanotlarini yoyib,
oyog'ini bukib, tog'da o'tiribdi.

(Chodir)

Amakim ichkarida,
Quloqlari tashqarida.

(Uyning to'sini)

Kunduzi tashqari,
Kechasi ichkari.

(Eshik)

Devorga qo'ngan to'sin,
Yo'lingda turar to'sib.

(Eshik)

Olti ko'zli, suyakli,
Hamma uyga kerakli.

(Deraza romi)

Kechasi yuqori,
Kunduzi quyi.

(Eshik zanjiri)

Qora botir eshik qo'rir.

(Qulf)

Qora qulim uy qo'rir.

(Qulf)

Qora itim anvoyi,
Eshigimning ayvoni.

(Qulf)

Qoragina zog'cha,
Qanotidan osilgan.

(Qulf)

Akasi uy qo'riqlar,
Ukasi tinmay uxlar.

(Qulf, kalit)

Chumchug'im bor chiq etdi,
Uychasin yopib ketdi.

(Qulf, kalit)

Tanasi uyda,
Boshi ko'chada.

(Mo'ri)

Og'zi kichik,
Ichi quduq.

(Obrez)

Bir shaharni bir hakka qo'rir.

(Qulf)

Katta xotin uy poylar,
Kichkinasi yo'qlovda.

(Qulf, kalit)

Akasini ukasi qitiqlar.

(Qulf, kalit)

Uzun bo'yli teragim,
Qora ko'ylagi egnida,
Tomdan mo'ralab turar,
Tepadan qarab turar

(Mo'ri)

Qishda xizmatda,
Yozda bir burchakda.

(Mo'ri)

Tepasi ayvon,
O'rtasi xumdon,
Tagi zindon.

(Obriz)

Yo'nsa, yo'g'on bo'ladi.

(O'ra)

Chuqur yerga kun tegmas.

(Quduq)

Osmondan osilgan,
Yerdan qazilgan.

(Quduq)

Tuproq olmay
O'ra qazdim.

(Qoziq o'rni)

Otasi bor, onasi bor,
O'n ikkita bolasi bor.

(Narvon)

Tepdim, tepdim,
Terakka chiqdim.

(Narvon)

Tursa, bo'yim yetmaydi,
Yotsa, menga yetmaydi.

(Narvon)

O'zi katta,
Qopqog'i yo'q.

(Hovuz)

Bersang, to'yadi,
Bermasang, turadi.

(Sandiq)

Bir eshagim -
To'rt oyoqli.
Uy to'ridadir biroq.

(Sandiq)

To'rt oyoqli,
Burnida qulf.

(Sandiq, kalit)

Toshdek bo'ladi,
Kulsang kuladi.

(Oyna)

Tol tagida tiniq suv.

(Oyna)

O'ngga tashlaydi, chapga tashlaydi,
Qadam bosmaydi.

(Beshik)

To'rt oyoqli,
Osti toshli.

(Beshik)

Bir uycham bor tebranar.

(Beshik)

Kunduzi yig'iladi,
Kechasi yoyiladi.

(Ko'rpa)

Qo'lsiz, oyoqsiz ko'ylak kiyar.

(Yostiqliq)

O'zi bitta,
Og'zi ikkita.

(Lo'labolish)

Bir bosh bug'doy uy yoritar.

(Chiroq)

Dum-dumaloq uycha,
Ichida yotar iloncha.

(Chiroq)

Nur buva,
Ust-boshi kir buva.

(Chiroq)

Qorong'i tomda bir kampir,
Sochini yoyib o'tirar.

(Chiroq)

O'zi qovoq,
Boshida tovoq,
Og'zida karnay,
Tunlari oyday.

(Chiroq)

O'zini o'zi yeb bitiradi.

(Sham)

Ko'zining yoshi oyog'iga bog'lanar.

(Sham)

Qilich uchi qaltiroq.

(Sham)

Miltillaydi ko'zlari,
Mo'ltillaydi yoshlari.

(Sham)

Kichkinagina sandiqcha,
Ichi to'la mixcha.

(Gugurt)

Qator turar kelinchak,
Boshida bor tugunchak.
Bitta uyda yotadi,
Bir-bir tugun yechadi.

(Gugurt)

Uzun, oriq,
Sallasi sariq.

(Gugurt)

Xirmoni katta -
Doni yo'q.
Dastori katta -
Noni yo'q.

(Kul, o'tin)

Otdim – osmonga ketdi
Tepdim – do'stinga yetdi.

(Koptok)

Bosh ustida chambarak,
Chambarakda kapalak.

(Do'ppi)

Boshimda bordir po'stak,
Qishda-chi issiq dastak,
Qora, sariq, ko'k va oq,
Yoqqan rangin tanla, boq.

(Telpak)

Kunduzi himoya qiladi,
Kechasi qoziqda turadi.

(Kiyim)

Qora botir qaltiroq,
Sag'irlari yaltiroq.

(Qora atlas)

Qora qo'yim tik turdi,
Yo'lini ikki burdi.
Bir-biridan ajralmas,
Kamarsiz belda turmas.

(Shim)

Ikki do'st qolmas bizdan,
Bo'yi past, saqlar muzdan.

(Etik)

Kechasi yig'iladi,
Kunduzi semiradi.

(Mahsi)

Kunduzi taq-tuq yuradi,
Kechasi ogzini ochib yotadi.

(Oyoq kiyim)

Ketaveradi, ketaveradi,
Borgan joyida qoladi.

(Oyoq kiyim)

Tashqariga chiqsam, men bilan yurar,
Ichkariga kirsam, qarab turar.

(Oyoq kiyim)

Beshta botir bir uyda,
Hujralari bo'lakcha.

(Qo'lqop)

Jar labida yaltiroq.

(Zirak-sirg'a)

Qo'lda juda chiroyli,
Qizlar ko'rsa ko'rarli.

(Uzuk)

Besh qo'limda besh tugma.

(Uzuk)

O'n barmoq – biri bog'liq.

(Uzuk)

Xon belbog'i – belga yetmas.

(Bilaguzuk)

Ikki ko'zli ninachi,
Ushlaganin kesadi.

(Qaychi)

Ikki podsho qon chiqarmay urishar.

(Qaychi)

O'zi bitta,
Ko'zi mingta.

(Angishvona)

Ikki bo'ri tog'da o'ynar, chang chiqarmay,
Ikki ham bir bosh yeydi, qon chiqarmay.

(Qaychi)

Ikki botir qilichlashar.

(Qaychi)

Ilma-teshik mo'ndi,
Kelib qo'limga qo'ndi.

(Angishvona)

Nayza gulim dumiga,
Uzun ilon o'ralgan.

(Igna va ip)

Bir ko'zli kampir,
Ko'ylakka gul tikar.

(Igna)

Hammaga to'n tikadi,
O'zi to'nsiz o'tadi.

(Igna)

O'zi bir qarich,
Dumi o'n bir qarich.

(Igna, ip)

Kichik qizcha kokili uzun.

(Igna, ip)

Mittigina kelinchak,
Mayin sochi uzunchoq.

(Igna, ip)

Ozg'ingina echki –
Ipini sudrab suv ichar.

(Igna, ip)

Igna – ignaning boshi tugma.

(To'g'nag'ich)

O't yemaydi bedanam,
Suv ichmaydi bedanam,
Atlas, kimxob ustida,
Yo'rg'alaydi bedanam.

(Tikish mashinasi)

Daraxt emas – yaproqli,
Ko'ylak emas – etakli.
Odam emas – so'zlaydi,
O'qiydigan izlaydi.

(Kitob)

Ustida qopqoq,
Tagida qopqoq,
Ichida yaproq.

(Kitob)

Na ko'zi bor, na og'zi bor,
So'ylashadi odam bilan.

(Kitob)

Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa, tashlama.

(Kitob)

Ham yig'lab, ham kulasan,
Topsang, nedir bilasan.

Qadri tillolarga teng,
Qo'ldan bermay yurasan.

(Kitob)

Doim hamrohim erur,
Yoshu qari xush ko'rur.

(Kitob)

Oq yer ochdim,
Qora don sochdim.

(Qog'oz, yozuv)

Qo'l bilan ekilar,
Ko'z bilan yig'ilar.

(Yozish, o'qish)

Tog'dan tushib sinmadi,
Suvga tushib sindi.

(Qog'oz)

Sirti tayoq,
Ichi bo'yoq

(Qalam)

Uzun bo'yli,
Yo'rma to'nli.

(Qamish qalam)

Daraxt emas, yaproqli,
Ko'ylak emas, etakli,
Odam emas so'zlaydi,
Turli kuylar kuylaydi.

(Kitob)

Oq yer ochdim,
Qora bug'doy sochdim.

(Qog'oz, yozuv)

Uzun terak yiqildi,
Uchi mening qo'limda.
Zag'izg'oni sayraydi,
Sochi mening qo'limda.

(Tanbur)

Mo'ri – tutun chiqmaydi,
Otga o'xshab kishnaydi.

(Karnay)

Qamish tana, o'zi mitti,
Ovozi har yerga yetdi.

(Surnay)

Tilsiz, aql o'rgatar.

(Kitob)

Qavat-qavat oq mato,
Yirtishing juda xato.

(Qog'oz)

Yog'och bulbul sayraydi,
Egalari so'zlaydi.

(Dutor)

Aylana gilam qoqdim,
Ovozi jahonga ketdi.

(Nog'ora)

Joni yo'q sinmaydi,
Urganda yig'laydi.

(Qo'ng'iroq)

Oq laylak uchdi-ketdi,
Dumini olmay ketdi.

(Varrak)

Yettita qiz onasi,
Hali o'zi kelinchak.

(Qo'g'irchoq)

Tap-tap etadi,
Ursam uchib ketadi.

(Koptok)

Otdan baland,
Odamdan past.

(Egar)

Bo'yi past,
Otdan tushmas.

(Egar)

Tepdim teshik,
Mindim beshik.
Yonimda ajriq,
Ortimda to'qay.

(Uzangi, egar, ot yoli, dumi)

Yetti teshik,
Bir kartiq.

(Ot xomuti)

Ot ustida dol,
Ikki og'zi bor.

(Xurjun)

Og'ilda bor besh barmoq,
Ishi xas-cho'p to'plamoq.

(Panshaxa)

Qo'yvorsam yuz quloch,
Yig'volsam bir quloch.

(Arqon)

Yurganda shaqirlab kuladi,
To'xtasa, ovozsiz turadi.

(Arava)

Jonsiz, bezabon temir,
Yuk solmasang, ketolmas.

Ikki oyog'i yumaloq,
Yugurib sira yetolmas.

(Arava)

Bir arqonim bor,
Bosh-oxiri yo'q.

(Yo'l)

Bir arqonim bor,
Yig'olmam zinhor.

(Yo'l)

Uzun mehmon – uyga kirmas.
Yerda yotar, aslo turmas.

(Yo'l)

Tog'dan baland,
Patakdan past.

(Yo'l)

To'rt og'ayni yo'l oldi,
Ikkisi ortda qoldi.
Ikkisi oldin ketib,
Ortdagi kelmas yetib.

(Arava g'ildiraklari)

Chil tok, chilman tok,
Chil hujra-yu, chil qaznoq.

(Chetan)

Qovurg'a bor –
Qoni yo'q.
Og'zi bor-u,
Joni yo'q.

(Chetan)

Uzun-uzun ulama
Uchiga yetgan bormikan?
Yo'lda yotgan sopolni
Olib o'tgan bormikan?

(Yo'l, ot tuyog'ining izi)

Uzun tayoq – olis ketar.

(Yo'l)

Uzun-uzun ulamaning,
Uchiga yetib bo'larmi?
Yerda yotgan ilonni
Ilib otib bo'larmi?

(Yo'l, arava izi)

Uzun ichak –
Beli tugunchak.

(Yo'l, ko'prik)

Tap-tap-tap etar,
Ustidan karvon o'tar.

(Ko'prik)

Ko'l ustidan
Poyezd o'tar.
Qimirlamay
Yo'lni kutar.

(Ko'prik)

Daryo ko'rdim,
Daryo ustida bo'yra ko'rdim.

(Qayiq)

Yursa, izi bilinmas.

(Qayiq)

Bir eshagim bor hangi,
To'qimlari yap-yangi.
O't yemaydi, suv ichmas,
Suzsa hamki suv kechmas.

(Qayiq, kema)

Top-top, top-top otim,
Tuyog'i yalpoq otim.
Odam ko'rsa kishnamas,
Yerdan bir cho'p tishlamas.

(Qayiq, kema)

Ketsa izi, yo'q,
Yursa, yo'li yo'q.

(Qayiq)

Paq etdi,
Badaxshon ketdi.

(Miltiq o'qi)

Oq kuchugim taq etdi,
Ovozi Qo'qon ketdi.

(Miltiq o'qi)

Uzun tumshuq
Tog'ni teshar.

(Miltiq)

Zing etdi, zingrab ketdi,
Olisga qarab ketdi.
O'tganin ko'rib bo'lmas,
Ortidan yetib bo'lmas.

(O'q)

Temir qushni uchirdim,
Ovozidan cho'chirdim,
Qanotlari bahaybat,
Orqasida bordir pat.

(Samolyot)

Aqli temir olam kezar.

(Yer sun'iy yo'ldoshi)

Shoxi bor, ho'kiz emas,
Egari bor, ot emas.
Xohlagan manzilingga
Yetkazadi, minsang bas.

(Raketa)

Po'lat qushim uchdi-ketdi.
Bir zum o'tmay Oyga yetdi.

(Raketa)

Shamolday uchqur o'zi,
Yo'q oyog'i va qo'li.
Ko'zga ko'rinmas aslo,
Charog'on yurgan yo'li.

(Elektr toki)

Suv emas, simda oqar,
O't emas, chiroq yoqar.

(Elektr toki)

O'zi qator joylangan,
Bir-biriga boylangan.
Bir-birini kuzatar,
Behisob nur uzatar.

(Simyog'och, tok)

Temir botir tik turar,
Necha yildirki qator.
Yo'g'on, ingichka bo'lgan
Simlarni tortgan tarang.

(Simyog'och, stolba)

Kechasi oftobdek,
Kunduzi koptokdek.

(Chiroq)

Uyga osdik bitta nok,
Nurafshon bo'ldi har yoq.

(Chiroq)

Uyimizga in qo'yg'an,
Tilla boshli qaldirg'och.
Kech kirganda ko'rsang gar,
Odamlarning ko'ngli chog'.

(Chiroq)

O'chog'i bor, mo'risi yo'q,
Cho'g'i bor-u kuli yo'q.

(Elektr pechka)

Pish-pish etib suv sepib,
Kemam boradi yelib,
Har zamon dud chiqarar.

(Dazmol)

Tashqari yoz, dim-olov,
Ichkarida muz, qirov.

(Muzlatkich)

Bir ajoyib ishxona, ichi doim qishxona.

(Muzlatkich)

Tinmay sayraydi quti,
Tinglar uni ming kishi.

(Radio)

Temir qafasda quticha,
Tun-u kun sayrab turar,
Ovozidan zeriksang,
Qulog'ing burab turar.

(Radio)

Katta quti, yuzi bor,
Ko'p tomosha, so'zi bor.

(Televizor)

Radio desam, radiomas,
Oyna desam oynamas.
Eshitasan so'zini,
Ham ko'rasan o'zini.

(Televizor)

Jonsiz, tinglaydi,
Qo'lsiz, yozadi,
Tilsiz, so'zlaydi.

(Magnitafon)

Dengizda kema suzar,
Ketma-ket oltin uzar.

(Paxta terish mashinasi)

O'radi o'rog'i yo'q,
Yig'adi barmog'i yo'q.
Doni bo'lar qop-qop,
Yanchadi, to'qmog'i yo'q.

(Kombayn)

Gur-gur etar, qanot yoyar,
Yurtdan yurtga uchib borar.

(Samolyot)

Chaqiraver, befoyda,
Eshitmas, qarab qolmas.

(Samolyot)

Yo'qdir qo'l-u oyog'i,
Na ko'zi, na qulog'i.
Ammo unga bir qadam
Yer va osmon orasi.

(Kosmik kema)

Baliqlardan o'zadi,
Suvni kesib suzadi.

(Paroxod)

Cho'zilib yotar narvon,
Undan o'tar uy-karvon.

(Temiryo'l, poyezd)

Kichik temir ustida,
Shamoldek yelib yurar.
Egalari kelguncha,
Har doim kutib turar.

(Tramvay)

Baland temir uy yurar,
Burni tuproqni surar.

(Ekskovator)

Kirsang, uycha ichiga
Chiqarar balandlikka.

(Lift)

Esingni tanigan payt,
Borarsan u dargohga.
Do'stlar bilan o'qiysan,
Ertalab yo choshgohda.

(Maktab)

Sandiq ichi pista-bodom,
Chaqsang, ilm olam-olam.

(Kitob)

Ilm berar bizga tinmay,
Doim mehr bermoqqa shay.

(O'qituvchi)

Rangi har xil,
Qog'ozga do'st.

(Rangli qalam)

Tili po'lat, so'zi soz,
So'zlay olmas beqog'oz.

(Ruchka)

Olmasang yarim nafas,
Yo'ldan o'tgani qo'ymas.
Belgilarning ichida
Qayrilma dumsiz turmas.

(Vergul)

Tim qora kichkina xol,
Yo'lda to'xtatar darhol.

(Nuqta)

Shakli o'xshab o'roqqa,
Doim tutar so'roqqa.

(So'roq belgisi)

Daryosi bor, suvi yo'q,
Shahri bor, odami yo'q.

(Xarita)

Sening bilim darajang
Unda terilgan harflar

(Diplom)

Tilla yozuvli daftar,
Ichida gavhar gaplar.

(Diplom)

Chiq etadi, yonadi,
Xotiraga oladi.
Sening qanday turishing,
Juda yaxshi biladi.

(Fotoapparat)

Tarvuzim bor urug'siz,
Pichoq bilan kesilmas.
Ichi bo'm-bo'sh mag'izsiz,
Tepsa bo'lar, yeb bo'lmas.

(Koptok)

Singlimga o'xshar o'zi,
Aslo yumilmas ko'zi.

(Qo'g'irchoq)

Toyim bor, kishnamaydi,
Yoz bo'lsa ishlamaydi.
Tepalikdan choptirsang,
Yugurib ketar, to'xtamaydi.

(Chana)

Suv ostida balandlab,
Kutar nayzasin shaylab.
Nayzasida qizil ilon,
Tinim bilmay likanglar.

(Qarmoq)

Suvga solsam botmaydi,
Baliqlar ham yutmaydi.

(Qarmoq po'kagi)

To'rt burchakli to'rt hilol,
Gumbazdek berar jilo,
Boshga kiyib olganda,
O'xo', – deyishar darhol.

(Do'ppi)

Bog'lab qo'ysang — yuradi,
Yechib qo'ysang — turadi.

(Botinka)

Yursang, birga yuradi,
Qoqilsang, og'zin ochib turadi.

(Oyoq kiyim)

Birlashtirib kiyimni,
Issiq tutar odamni.

(Tugma)

Vahti bilan soch tishlar,
Oynaga qarab ishlar.

(Taroq)

Og'zi yo'g'-u tishi bor,
Boshimizda ishi bor.

(Taroq)

Bir tish bilan tishlaydi,
Tishlaganda kishnaydi.
Kishnab-kishnab ishlaydi,
Ishlab ko'nglin xushlaydi.

(Tikish mashinasi)

Qishin-yozin bir joyda,
Xatlab kirolmas uyga.

(Eshik)

Kelsangiz ham, ketsangiz ham har zamonda,
Qo'l berishni, yo'l berishni qilmas kanda.

(Eshik)

Bir soqchi bor ostonada,
Bir ko'chada, bir xonada.

(Eshik tutqichi)

Qumdan yasalgan muzim,
U borki issiq uyim.

(Deraza oynasi)

Tom ustida quvur ko'rdim.

(Tarnov)

Posboni bo'lib uyning,
Ko'zi, tili yo'q uning.

(Qulf)

Mixlangan qulog'idan,
Suv quyar oyog'idan.

(Umivalnik)

Yelkasi bor, boshi yo'q,
Oyog'i bor, qo'li yo'q.

(Stul)

Kosaga sho'ng'ib ketadi,
Og'izga borib yetadi.

(Qoshiq)

Burnida bor burmasi,
Dasturxonning to'rida.
Boshida bor tugmasi,
Bir qo'li bor belida.

(Choynak)

Qorni och –
Qo'shiq aytar.

Qorni to'q,
Yig'lab qaytar.

(Chelak)

Ikki o'rim sochi bor,
Qotma, qing'ir qanotli.
Yukingni yengil qilar,
Yelka minish odati.

(Obkash)

Oz qo'ysangiz: «Sol» – deydi,
Ko'p qo'ysangiz: «Ol!» – deydi.
(Tarozi)

Ahil yashar yetmish mard,
O't yoqib, qilar xizmat.

(Gugurt)

Besh barmog'i bor-u
Birorta ham tirnog'i yo'q?
(Qo'lqop)

Bilim berar u bizga,
Boydir sehr va so'zga.

(Kitob)

O'zi taom bo'lmas,
Usiz ta'm ham bo'lmas.
(Tuz)

Qo'l, oyog'i yo'q yuradi,
Urrib turar yuragi.

(Soat)

Beli bog'liq, bir tutam,
Lekin emas guldasta.
U bilan uy, hovlini.
Qilsa bo'lar orasta.
(Supurgi)

Kecha-kunduz yurar jadallab,
Yurmoqlikda tinim bilmaydi.
O'z burchini o'tar-u, lekin,
Yurgan bilan joydan jilmaydi.
Kunda qarar unga har kishi,
Chunki tushar hammaning ishi.

(Soat)

Yo'lga qo'yilgan narvon
Undan o'tar uy-karvon.

(Ko'prik)

O'zi bir kichkina narsa,
Kerak bo'lar har darsda.
Chizib qo'ysang noto'g'ri,
Yo'q qiladi bir pasda.

(O'chirg'ich)

Qush bo'yin, qanoti bor,
Burgutdan zo'r haybati bor.
Uchsa lochin yetolmas,
Haybatli savlati bor.

(Samolyot)

Ikki ajib qulog'i bor
Biri tinglar, biri so'zlar.

(Telefon)

O'tin yorar erta-kech,
O'zi yorilmaydi hech.

(Bolta)

Tanasi bor boshi yo'q,
Oyog'i bor qo'li yo'q.

(Stol)

Pakana kampir tom supurar.

(Soch oladigan uskuna)

Kosadan olar,
Og'izga solar.

(Qoshiq)

Semiz boybuva –
Piyolaga salom berar.

(Choynak)

Dastasi yo'q, og'zi yo'q,
Suvdan qaytar qorni to'q.

(Ko'za)

Tap-tap etadi,
Tagidan karvon o'tadi.

(Elak)

Beli bog'liq, saharlab
Hovli yuzida yurar.

(Supurgi)

Bobomni suyab boradi,
Tangaday joyni oladi.

(Xassa)

Qoravoyning qorni to'q,
Qulog'i bor, burni yo'q.

(Qozon)

Oppoq qog'oz osmonda,
Kokillari har yonda.

(Varrak)

Tap-tap etadi,
Ursam uchib ketadi.

(Koptok)

Ipni chertsang,
Ovoz chiqar.

(Dutor)

Taqir-tuqir ikki do'st,
Pisand emas qor-u muz.

(Etik)

Ikki og'a birlashib,
Har narsani kesishar.

(Qaychi)

Bir ko'zli, yiltir,
Ip bilan keltir.

(Igna)

Olam kezib, tinmaydi,
Bir odamda turmaydi.

(Pul)

Urdim, gup etdi,
Yer tagiga kirib ketdi.

(Ketmon)

To'rda turgan to'rt yigit,
To'rtovi ham mard yigit.

(Cho'p savag'ich)

O'zi bitta – muxlisi million.

(Koptok)



Mantiqiy topishmoqlar



Nima hamma tilda ham gapiradi?

(Aks-sado)

Nima uchun odam orqaga o'girilib qaraydi?

(Orqasida ko'zi yo'qligi uchun)

Odamzodda nima ko'p?

(Umid, reja)

*Odamda nima bo'lmasa, nimali bo'lmasa,
Nima qilmasa yashay olmaydi?*

(Hunari, ilmi bo'lmasa, mehnat qilmasa)

Dunyoda nima yugurik?

(O'y)

Eng qimmat narsa?

(To'g'rilik, rostlik)

Qilichdan o'tkir nima?

(Nigoh)

Nima yuqoridan pastga qarab o'sadi?

(Sumalak)

Tipratikan qishda nima qiladi?

(Uxlaydi)

Nima yumuq ko'z bilan ko'riladi?

(Tush)

Dunyoda bir narsa borki, u bo'lmasa hech kim
bir-birini tanimaydi, u nima?

(Ism)

Yuki bo'lsa yuradi, yuksiz to'xtaydi.

U nima?

(Osma soat)

Har kim to'yar, u to'ymas?

(Baxil, hasadchi)

Qaysi joyda daryolar suvsiz,

Shaharlar uysiz bo'ladi?

(Xaritada)

Qayerda osmon pastda bo'ladi?

(Suvda)

Qaysi savolga hech qachon «ha» javobini berish
mumkin emas?

(«Uxlayapsanmi?» – degan so'roqqa)

Qaysi vaqtda soatga qarab bo'lmaydi.

(Uxlaganda)

Kecha «ertaga», ertaga «kecha» bo'ladigan kun
qaysi?

(Bugun)

Sovuqda bir xil kiyingan chol va bola turibdi, qaysi
biri tezroq sovuq yeydi?

(Ikkovi ham)

Qanday idishni to'ldirib bo'lmaydi?

(Teshik idishni)

Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi?

(Quruq tosh)

Qanday soat bir sutkada ikki martagina vaqtni to'g'ri ko'rsatadi?

(To'xtagan soat)

Yomg'ir yog'ib turganda, qarg'a qanday daraxtga qo'nadi?

(Ho'l daraxtga qo'nadi)

Tushimda yovvoyi hayvonlar meni taladi, ulardan qanday qilib qutulish mumkin?

(Uyg'onib)

Uchta traktorchining Ahmad ismli akasi bor. Lekin Ahmad akaning ukalari yo'q. Bu qanday bo'ladi?

*(Traktorchilar — ayollar,
Ahmad akaning singillari)*

Qora mushuk qachon uyga osongina kira oladi?

(Eshik ochiq bo'lsa)

Suv qayerda ustundek turadi?

(Quduqda)

Qachon uchni ko'rib o'n besh deymiz?

(Kunduz soat 3 da)

Og'zida tishi yo'q odam tish og'rig'ini qachon biladi?

(It tishlaganda)

Och qoringa nechta tuxum yeyish mumkin?

*(Bitta, qolganlari «och qoringa» deb
hisoblanmaydi)*

Sizga tegishli bo'lgan nimani boshqalar sizdan ko'ra
ko'proq aytadi?

(Ismni)

Hayot to'rt narsa bilan mavjud,
Bilsang, ular nima, ayt?

(Yer, suv, havo, olov)

Besh harfdan iborat bo'lgan mitti kemiruvchini
ushlaydigan qopqonni topa olasizmi?

(Mushuk)

MUNDARIJA

1. Osmon jismlari	3
2. Tabiat hodisalari	9
3. Vaqt nisbatlari	19
4. Inson a'zolari	23
5. Ong va tafakkur.....	31
6. Hayvonlar va jonivorlar	35
7. Meva va sabzavotlar.....	55
8. O'simliklar va daraxtlar	67
9. Oziq-ovqatlar	77
10. Narsa va buyumlar.....	81
11. Mantiqiy topishmoqlar.....	115

Adabiy-badiiy nashr

TOP, TOP, TOPISHMOQ

Muharrir Feruza QUVONOVA
Badiiy muharrir Uyg'un SOLIHOV
Musahhih Dilafrō'z SIDDIQOVA
Kompyuterda sahifalovchi Feruza BOTIROVA

Bosishga 24.09.2019 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32.
Bosma tobog'i 3,75. Shartli bosma tobog'i 6,30.
Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.
Adadi 10000 (I zavod 3000) nusxa. Buyurtma № 246.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
Litsenziya raqami: AI № 198. 2011-yil 28.08. da berilgan.
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – (78) 147-00-14;
Marketing bo'limi – (98) 128-78-43
faks – (71) 273-00-14; e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

TOP... TOP...
TOPISHMOQ



www.book.uz
Onlayn kitob do'koni

ISBN 978-9943-08-979-2



9 789943 089792



YANGI ASR AVLODI